



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna, Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
Pulatova Difuza Baxramovna	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
Saidova Sumbuloy Otabayevna	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
Xamidova Zaynura Ramazonovna	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
Yunusova Dildora Hamrakulovna	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
Kasimova Xulkar Atabayevna	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi	



OILAVIY HOLAT, MA'LUMOT DARAJASI VA PEDAGOGIK STAJNING AYOLLAR EMOTSIONAL BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Pulatova Dilfuza Baxramovna

“Oila va gender” ilmiy- tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0000-0002-1853-5498>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollarning emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim psixologik omillar, jumladan oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional barqarorlikning kasbiy faoliyat samaradorligi, stressga chidamlilik va psixologik farovonlik bilan bog'liq jihatlari yoritilib, turli ijtimoiy-demografik omillarning ayol pedagoglar emotsional holatiga ko'rsatadigan ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: emotsional barqarorlik, ayol pedagoglar, oilaviy holat, ma'lumot darajasi, pedagogik staj, psixologik farovonlik, stressga chidamlilik.

Abstract: This article examines the psychological characteristics of the influence of marital status, educational level, and teaching experience on women's emotional stability. Particular attention is paid to the relationship between emotional stability, professional performance, stress resilience, and psychological well-being.

Key words: emotional stability, female teachers, marital status, educational level, teaching experience, psychological well-being, stress resilience.

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности влияния семейного положения, уровня образования и педагогического стажа на эмоциональную устойчивость женщин. Особое внимание уделяется взаимосвязи эмоциональной устойчивости с профессиональной эффективностью, стрессоустойчивостью и психологическим благополучием.

Ключевые слова: эмоциональная устойчивость, женщины-педагоги, семейное положение, уровень образования, педагогический стаж, психологическое благополучие, стрессоустойчивость.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ayollarning ijtimoiy va kasbiy faolligi tobora ortib borayotganligi ularning psixologik salomatligi, emotsional barqarorligi va stressga moslashuvchanligini ilmiy jihatdan o'rganishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori darajadagi emotsional yuklama, kommunikativ mas'uliyat va kasbiy bosim sharoitida faoliyat yuritadilar. Shu sababli ularning emotsional barqarorligini belgilovchi psixologik omillarni aniqlash nafaqat psixologiya, balki pedagogika va ta'lim boshqaruvi sohalari uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kasbiy talablarning ortib borishi va pedagog faoliyatining murakkablashuvi emotsional barqarorlikni saqlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollarning SAN metodikasi ko'rsatkichlari oilaviy holat omiliga bog'liq ravishda statistik jihatdan ishonchli differensial xususiyatlarni namoyon etgan. Barcha uchala shkala - “o'zini his qilish”, “faollik” va “kayfiyat” bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonchli tafovutlar aniqlangan. Mazkur natijalar oilaviy maqom ayollarning psixofunksional holati, emotsional resurslari hamda kundalik hayot faoliyatini subyektiv baholashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.



Amerikalik psixolog Daniel Goleman emotsional intellekt nazariyasida shaxsning emotsiyalarini anglash va boshqarish qobiliyati uning kasbiy muvaffaqiyati hamda psixologik barqarorligining asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, emotsional barqarorligi yuqori bo'lgan shaxslar stressli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, ziddiyatlarni konstruktiv hal etish va ijtimoiy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi ^[1]. Bu jihat pedagogik faoliyatda ayniqsa muhim bo'lib, ayol pedagoglarning kasbiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rus psixologi L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda talqin qilib, emotsional rivojlanish oilaviy munosabatlar va ijtimoiy tajriba ta'sirida shakllanishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, insonning hissiy reaksiyalari va emotsional boshqaruv ko'nikmalari ijtimoiy faoliyat jarayonida rivojlanadi ^[2]. Ushbu yondashuv oilaviy muhitning ayollar emotsional barqarorligiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy jihatdan asoslaydi.

A.N. Leontev faoliyat nazariyasida shaxsning psixologik xususiyatlari faoliyat jarayonida shakllanishini asoslaydi. Olimning fikriga ko'ra, kasbiy tajriba ortishi bilan insonning o'z faoliyatini nazorat qilish, emotsional zo'riqishni boshqarish va murakkab vaziyatlarga moslashish qobiliyati ham rivojlanadi ^[3]. Bu esa pedagogik tajning ortishi ayollarning emotsional barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

S.L. Rubinshteyn shaxsning emotsional holatini uning ichki ehtiyojlari, qadriyatlar va tashqi ijtimoiy sharoitlarning o'zaro ta'siri bilan izohlaydi. Uning fikricha, shaxsning emotsional barqarorligi tashqi muhit ta'sirini ongli ravishda boshqara olish qobiliyati bilan belgilanadi ^[4]. Shu sababli oilaviy qo'llab-quvvatlash va sog'lom ijtimoiy muhit pedagoglarning psixologik salomatligini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

R. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressni kognitiv baholash nazariyasiga ko'ra, insonning stressga munosabati vaziyatning o'ziga emas, balki uni qanday baholashiga bog'liq. Olimlar samarali moslashuv strategiyalarini qo'llaydigan shaxslar yuqori emotsional barqarorlikka ega bo'lishini ta'kidlaydilar ^[5]. Pedagogik faoliyatda stress omillari ko'pligi sababli ushbu nazariya ayol pedagoglarning psixologik moslashuvini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Maslach va Jackson kasbiy emotsional zo'riqish (burnout) nazariyasida o'qituvchilar faoliyati doimiy emotsional yuklama bilan bog'liqligini qayd etadilar. Ularning fikricha, pedagogik taj ortishi bilan tajriba oshishi mumkin, biroq emotsional charchash xavfi ham yuzaga keladi. Shu sababli psixologik profilaktika va emotsional qo'llab-quvvatlash tizimlari pedagoglarning kasbiy salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi ^[6].

Shuningdek, WHO (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan tavsiyalarda psixologik salomatlik insonning mehnat unumdorligi, ijtimoiy faolligi va hayot sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, pedagoglarda emotsional barqarorlikni mustahkamlash ta'lim sifati va o'quvchilar bilan samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ^[9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar emotsional barqarorligi biologik yoki individual omillargina emas, balki oilaviy holat, ma'lumot darajasi va kasbiy tajriba kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"O'zini his qilish" shkalasi bo'yicha turmush qurmagan ayollarda o'rtacha ko'rsatkich 44,25 ballni, turmush qurgan ayollarda 66,18 ballni, ajrashgan ayollarda 47,51 ballni hamda beva ayollarda 45,92 ballni tashkil etgan. Guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan ($F=4,186$; $p<0,01$). Mazkur natijalar orasida eng yuqori ko'rsatkichning turmush qurgan ayollarda kuzatilishi oilaviy qo'llab-quvvatlash, turmush o'rtog'i bilan emotsional yaqinlik, kundalik ijtimoiy yordam va oilaviy barqarorlikning shaxsning umumiy psixofiziologik holatini ijobiy mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Ajrashgan hamda beva ayollarda ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi esa oilaviy munosabatlarning uzilishi yoki turmush o'rtog'ining yo'qotilishi bilan bog'liq adaptatsion yuklama, emotsional zo'riqish hamda ijtimoiy tayanch resurslarining qisqarishi bilan izohlanishi mumkin. Turmush qurmagan ayollarda ham mazkur ko'rsatkichning pastroq darajada qayd etilishi oilaviy tayanch tizimining shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

1-jadval: Ayollar SAN metodikasining oilaviy holat bo'yicha farqlari (n=450)

No	Shkalalar	Turmush qurmagan (N-55)	Turmush qurgan (N-284)	Ajrashgan (N-98)	Beva (N-13)	F	p
1	O'zini his qilish	44,25	66,18	47,51	45,92	4,186	0,005**
2	Faollik	51,84	34,38	34,73	28,46	7,018	0,004**
3	Kayfiyat	38,51	39,19	50,82	40,08	9,418	0,000**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.



Kuzatishlarimiz asosida "Faollik" shkalasi bo'yicha ham oilaviy holatga bog'liq sezilarli tafovut aniqlangan ($F=7,018$; $p<0,01$). Ushbu ko'rsatkich turmush qurmagan ayollarda 51,84 ballni, turmush qurgan ayollarda 34,38 ballni, ajrashgan ayollarda 34,73 ballni hamda beva ayollarda 28,46 ballni tashkil etgan. Natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori faollik darajasi turmush qurmagan ayollarda kuzatilgan. Bunday holat ushbu guruh vakillarining shaxsiy rivojlanish, kasbiy faoliyat, ta'lim olish, ijtimoiy faollik va individual maqsadlarga erishishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Turmush qurgan ayollarda faollikning nisbatan pasayishi oilaviy va kasbiy rollarning uyg'unlashuvi natijasida energiya resurslarining turli faoliyat yo'nalishlariga taqsimlanishi bilan izohlanadi. Beva ayollarda eng past ko'rsatkichning qayd etilishi esa emotsional yo'qotishlar, hayot tarzining o'zgarishi hamda psixologik moslashuv jarayonlarining murakkablashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida "Kayfiyat" shkalasi bo'yicha ham guruhlar o'rtasida eng yuqori statistik tafovut aniqlangan ($F=9,418$; $p<0,001$). Jumladan, turmush qurmagan ayollarda mazkur ko'rsatkich 38,51 ballni, turmush qurgan ayollarda 39,19 ballni, ajrashgan ayollarda 50,82 ballni hamda beva ayollarda 40,08 ballni tashkil etgan. Mazkur natijalarda ajrashgan ayollarning ko'rsatkichi boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli yuqori ekanligi kuzatiladi. Ushbu holat ajrashish jarayonidan keyingi psixologik moslashuvning muvaffaqiyatli kechgan qismida shaxsning yangi hayotiy strategiyalarni shakllantirishi, ichki mustaqillik hissining ortishi hamda shaxsiy erkinlikni qayta tiklashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur natijani barcha ajrashgan ayollarga xos universal qonuniyat sifatida emas, balki tadqiqot tanlanmasida kuzatilgan empirik xususiyat sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Turmush qurgan hamda beva ayollarda kayfiyat ko'rsatkichlarining bir-biriga yaqinligi emotsional fonning nisbatan barqarorligini ko'rsatsa, turmush qurmagan ayollarda mazkur ko'rsatkichning pastroq bo'lishi hayotiy istiqbollar va shaxsiy ehtiyojlarning faol shakllanish bosqichi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

SAN metodikasining uchala komponenti oilaviy holatning ayollar psixoemotsional salomatligiga turlicha ta'sir ko'rsatishini aks ettiradi. Xususan, turmush qurgan ayollar o'zini his qilish bo'yicha eng yuqori natijalarni namoyon etgan bo'lsa, turmush qurmagan ayollar faollik ko'rsatkichi bo'yicha yetakchilik qilgan, ajrashgan ayollar esa kayfiyat shkalasi bo'yicha eng yuqori natijani qayd etgan. Mazkur qonuniyat oilaviy maqomning psixologik resurslarga bir yo'nalishda emas, balki ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Demak, oilaviy holatni faqat himoya qiluvchi yoki faqat xavf omili sifatida baholash ilmiy jihatdan to'liq asosli emas. SAN metodikasi bo'yicha olingan empirik natijalar ayollarning psixofunksional holatini baholashda oilaviy holat muhim ijtimoiy-psixologik determinantlardan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari turmush qurgan ayollarda umumiy psixofiziologik farovonlikning yuqoriroq darajada shakllanishini, turmush qurmagan ayollarda individual faollik resurslari ustunligini hamda ajrashgan ayollarda emotsional moslashuvning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

2-jadval: Turli yoshdagi ayollarda emotsional holat metodikasi ko'rsatkichlarining oilaviy holat bo'yicha differentsiatsiyasi (n=450)

№	Shkalalar	Turmush qurmagan (N-55)	Turmush qurgan (N-284)	Ajrashgan (N-98)	Beva (N-13)	F	p
1	Osoyishtalik - bezovtalik	8,04	5,93	5,79	5,46	3,254	0,008**
2	Quvvatlilik - charchoq	9,09	5,50	5,59	5,38	3,869	0,007**
3	Ko'tarinki kayfiyat - tushkunlik	6,15	8,76	5,80	4,54	5,676	0,001**
4	O'ziga bo'lgan ishonch hissi - ojizlik hissi	5,60	8,71	5,98	4,77	6,087	0,000**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Emotsional holatning barcha komponentlari - "osoyishtalik - bezovtalik", "quvvatlilik - charchoq", "ko'tarinki kayfiyat - tushkunlik" hamda "o'ziga bo'lgan ishonch hissi - ojizlik hissi" shkalalari bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonchli tafovutlar aniqlangan. Bu holat oilaviy maqom ayollarning emotsional barqarorligi, ichki psixologik resurslari va subyektiv farovonligining muhim ijtimoiy determinantlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, "Osoyishtalik - bezovtalik" shkalasi bo'yicha turmush qurmagan ayollarda o'rtacha ko'rsatkich 8,04 ballni, turmush qurgan ayollarda 5,93 ballni, ajrashgan ayollarda 5,79 ballni hamda beva ayollarda 5,46 ballni tashkil etgan. Guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan ($F=3,254$; $p<0,01$).

Natijalarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich turmush qurmagan ayollarda kuzatilgan. Bu holat mazkur guruh vakillarining oilaviy majburiyatlar va rol yuklamalarining nisbatan kamligi, shaxsiy qarorlarni mustaqil qabul



qilish imkoniyatining yuqoriligi hamda individual hayot tarzining ustunligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Turmush qurgan, ajrashgan va beva ayollarda mazkur ko'rsatkichning pastroq namoyon bo'lishi esa oilaviy hayot bilan bog'liq mas'uliyat, hayotiy sinovlar va adaptatsion vaziyatlarning emotsional muvozanatga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Kuzatishlarimiz asosida "Quvvatlilik - charchoq" shkalasi bo'yicha ham statistik jihatdan ishonchli tafovut aniqlangan ($F=3,869$; $p<0,01$). Ushbu ko'rsatkich turmush qurmagan ayollarda 9,09 ballni, turmush qurgan ayollarda 5,50 ballni, ajrashgan ayollarda 5,59 ballni hamda beva ayollarda 5,38 ballni tashkil etgan. Mazkur natijalar turmush qurmagan ayollarda energiya resurslari, hayotiy faollik va subyektiv quvvatlilik hissining yuqoriroq darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Bunday holat shaxsiy vaqt va imkoniyatlarning ko'proq individual rivojlanishga yo'naltirilishi, ijtimoiy va kasbiy faoliyatning nisbatan erkin tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Turmush qurgan ayollarda quvvatlilikning nisbatan pasayishi oilaviy, kasbiy va maishiy vazifalarning bir vaqtning o'zida bajarilishi natijasida energiya resurslarining kengroq taqsimlanishi bilan izohlanadi. Ajrashgan hamda beva ayollarda esa emotsional zo'rliq va moslashuv jarayonlari mazkur ko'rsatkichning nisbatan past darajada namoyon bo'lishiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

"O'ziga bo'lgan ishonch hissi - o'zlik hissi" shkalasi bo'yicha ham guruhlar o'rtasida eng yuqori statistik ishonchlilik darajasidagi tafovut aniqlangan ($F=6,087$; $p<0,001$). Ushbu ko'rsatkich turmush qurmagan ayollarda 5,60 ballni, turmush qurgan ayollarda 8,71 ballni, ajrashgan ayollarda 5,98 ballni hamda beva ayollarda 4,77 ballni tashkil etgan. Natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, turmush qurgan ayollar o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch, ichki tayanch resurslari hamda shaxsiy kompetentligini baholash bo'yicha boshqa guruhlariga nisbatan ustunlikka ega.

Kuzatishlarimiz asosida emotsional holat metodikasining barcha komponentlari oilaviy maqom bilan uzviy bog'liq ekanligi namoyon bo'ldi. Biroq ushbu bog'liqlik barcha shkalalarda bir xil yo'nalishda kuzatilmagan. Xususan, osoyishtalik va quvvatlilik bo'yicha turmush qurmagan ayollar yuqori natijalarni namoyon etgan bo'lsa, ko'tarinki kayfiyat va o'ziga bo'lgan ishonch hissi bo'yicha turmush qurgan ayollar ustunlik qilgan. Bu holat oilaviy maqomning emotsional holatning turli komponentlariga selektiv ta'sir ko'rsatishini hamda har bir emotsional ko'rsatkich oilaviy hayotning o'ziga xos jihatlari bilan turlicha bog'liqligini ko'rsatadi. Emotsional holat metodikasi natijalari oilaviy holat ayollarning emotsional farovonligini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari turmush qurmagan ayollarda individual psixologik resurslar va hayotiy energiya yuqoriroq darajada namoyon bo'lishini, turmush qurgan ayollarda esa emotsional barqarorlik, ko'tarinki kayfiyat va o'ziga bo'lgan ishonchning kuchliroq shakllanganligini ko'rsatdi. Ajrashgan va beva ayollarda ayrim emotsional komponentlarning pasayishi oilaviy maqom o'zgarishi bilan bog'liq moslashuv jarayonlarining murakkabligini aks ettiradi. Mazkur empirik qonuniyatlar ayollarning oilaviy holatini hisobga olgan holda psixoprofilaktik, psixokonsultativ va psixokorreksion dasturlarni differensial yondashuv asosida ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

3-jadval: Turli yoshdagi ayollarda differensial hissiyotlar ko'rsatkichlarining oilaviy holat bo'yicha differentsiatsiyasi (n=450)

No	Shkalalar	Turmush qurmagan (N-55)	Turmush qurgan (N-284)	Ajrashgan (N-98)	Beva (N-13)	F	p
1	Kommunikativ hissiyotlar	6,75	9,00	6,69	5,92	4,935	0,004**
2	Glorik hissiyotlar	6,18	6,45	6,76	9,08	4,238	0,006**
3	Praksik hissiyotlar	6,40	6,15	8,50	5,23	3,708	0,015*
4	Pugnistik hissiyotlar	6,38	6,42	6,60	9,92	4,403	0,001**
5	Romantik hissiyotlar	6,25	6,15	6,63	6,62	1,231	0,298
6	Gnostik hislar	6,00	7,42	6,36	5,62	4,115	0,043*
7	Estetik hislar	6,51	6,39	6,52	4,92	1,879	0,132
8	Gedonistik hissiyotlar	6,16	6,65	6,53	7,23	1,061	0,365
9	Akizitiv hissiyotlar	6,16	6,78	6,40	5,77	1,723	0,161
10	Altruistik hissiyotlar	6,44	6,89	6,76	9,23	4,609	0,009**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Ayollarda differensial hissiyotlar ko'rsatkichlarining oilaviy holat bo'yicha differentsiatsiyasi hissiy yo'nalishlarning barchasida bir xil namoyon bo'lmagan. Tadqiqot natijalari kommunikativ, glorik, praksik, pugnistik, gnostik hamda altruistik hissiyotlar bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli tafovutlar mavjudligini, romantik, estetik, gedonistik va akizitiv hissiyotlarda esa oilaviy holatga bog'liq ishonchli farqlar aniqlan-



maganligini ko'rsatdi. Bu esa oilaviy maqom differensial hissiyotlarning ayrim komponentlariga selektiv ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, kommunikativ hissiyotlar shkalasi bo'yicha turmush qurmagan ayollarda o'rtacha ko'rsatkich 6,75 ballni, turmush qurgan ayollarda 9,00 ballni, ajrashgan ayollarda 6,69 ballni hamda beva ayollarda 5,92 ballni tashkil etgan. Guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan ($F=4,935$; $p<0,01$). Natijalarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich turmush qurgan ayollarda kuzatilgan. Mazkur holat oilaviy munosabatlarning muntazam muloqot, o'zaro emotsional almashinuv, hamkorlik va yaqin ijtimoiy aloqalarni rivojlantiruvchi muhit sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Beva ayollarda mazkur ko'rsatkichning eng past darajada qayd etilishi esa kundalik emotsional muloqotning qisqarishi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining cheklanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aytish mumkinki, estetik hislar ($F=1,879$; $p>0,05$), gedonistik hissiyotlar ($F=1,061$; $p>0,05$) hamda akizitiv hissiyotlar ($F=1,723$; $p>0,05$) bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmagan. Ushbu natijalar go'zallikni idrok etish, hayotdan zavqlanish hamda moddiy qadriyatlarga bo'lgan emotsional munosabat oilaviy maqomdan ko'ra ko'proq shaxsning individual psixologik xususiyatlari, madaniy qadriyatlari va hayotiy tajribasi bilan belgilanishini anglatadi. Tahlillardan ko'rinadiki, altruistik hissiyotlar shkalasi bo'yicha ham guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli tafovut aniqlangan ($F=4,609$; $p<0,01$).

Mazkur ko'rsatkich turmush qurmagan ayollarda 6,44 ballni, turmush qurgan ayollarda 6,89 ballni, ajrashgan ayollarda 6,76 ballni hamda beva ayollarda 9,23 ballni tashkil etgan. Eng yuqori natijaning beva ayollarda kuzatilishi hayotiy yo'qotishlarni boshdan kechirgan shaxslarda boshqalarning kechinmalariga nisbatan sezgirlik, hamdardlik, g'amxo'rlik va prosotsial yo'nalganlikning kuchayganligini ko'rsatadi. Mazkur qonuniyat hayotiy tajribaning ortishi bilan birgalikda boshqalarga yordam berish motivlari va ijtimoiy mas'uliyat hissining chuqurlashishini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Differensial hissiyotlar metodikasi natijalari oilaviy holat ayollarning barcha hissiy komponentlariga bir xil ta'sir ko'rsatmasligini tasdiqladi. Kommunikativ va gnostik hissiyotlar asosan turmush qurgan ayollarda yuqori darajada namoyon bo'lgan bo'lsa, praksik hissiyotlar ajrashgan ayollarda, glorik, pugnistik va altruistik hissiyotlar esa beva ayollarda eng yuqori darajada qayd etildi. Shu bilan birga, romantik, estetik, gedonistik hamda akizitiv hissiyotlar oilaviy holatga nisbatan barqarorligini saqlab qolgan.

Mazkur empirik qonuniyat differensial hissiyotlarning rivojlanishida oilaviy maqom selektiv ijtimoiy-psixologik determinant sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi hamda ayollar bilan olib boriladigan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni oilaviy holatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. - New York: Bantam Books, 1995.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. - Москва: Смысл; Эксмо, 2005.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1975.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - Санкт-Петербург: Питер, 2002.
5. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer Publishing Company, 1984.
6. Maslach C., Jackson S.E. The Measurement of Experienced Burnout. // Journal of Occupational Behaviour. - 1981. - Vol. 2(2). - P. 99-113.
7. World Health Organization. Mental Health at Work: Policy Brief. - Geneva: WHO, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.